

MUQANNA QO'ZG'OLONI VA UNING OQIBATLARI

Boboxonov Lochinbek

Tel: +998996789814

E-mail: lochinbekboboxonov@gmail.com

Denov tadbirkollik va pedagogika instituti talabasi

Abdihamidova Muxlisa

Tel: +998903778737

E-mail: abdihamidovamuxlisa@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Qobilboyeva Zarnigor

Tel: +998931925882

E-mail: qobilboyevazarnigor@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Nuriddinova Rohila

Tel: +998919016603

E-mail: nuriddinovaroxila2@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Anatatsiya: Ushbu maqolada Movarounnahr va Xurosonda arab bosqiniga qarshi ko'tarilgan yirik qo'zg'olonlardan biri "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni xaqida ma'lumot keltirilgan. VIII asrning 70-80-yillarida Movarounnahrda ko'tarilgan bu qo'zg'olon raxbari Hoshim ibn Hakim ismli shaxs bo'lib, u xalq orasida Muqanna ya'ni "Niqobdor" nomi bilan shuxrat qozongan. Muqanna qo'zg'oloni o'z davrining eng qudratli davlati bo'lgan xalifalikni larzaga soladi. Bu qo'zg'olon xalifalik kuchini zaiflashtiradi va boshqa o'lkalarda ham ozodlik harakatlarining boshlanishiga turtki bo'ladi.

Kalit so'zlar: Muqanna, Som qal'asi, Buxoro, Kesh, Narshaxiy, Abu Ja'far, Beruniy.

Vatanimiz xalqlarining arablar asoratiga qarshi olib borgan kurashi tarixda aloxida o'rin tutadi. VIII asrning 70-80-yillarida Movarounnaxrda juda katta xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Bu qo'zg'olon tarixda "Oq kiyimlilar" yoki qo'zg'olon raxbarining nomi bilan Muqanna qo'zg'oloni nomi bilan yuritiladi. Muqannaning asl ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, u doimo yuziga ko'k parda tortib yurganligi sababli Muqanna ya'ni "Niqobdor" nomini olgan. Muqannaning shaxsi xaqida turli manbalarda turlicha fikr yuritiladi. Jumladan, Yaqubiyning ta'kidlashicha uni Hoshim ul A'var (bir ko'zli), ya'ni bir ko'zli Hoshim deb ataganlar. Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida Muqannani juda xunuk, boshi kal, bir ko'zi ko'r bo'lganligi sababli doimo boshi va yuziga ko'k parda tutib yurar edi deb ta'riflaydi.

"Muqanna Marv atrofi aholisidan"- deyiladi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida. U Marv yaqinidagi yaqinidagi Qo'za qishlog'ida tug'ilgan. U ilgari kudungar (kigiz bosuvchi)lik qilar edi, keyin ilm o'rganishga mashg'ul bo'ladi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rganadi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib payg'ambarlik da'vosini ham qiladi.

Muqanna ummaviylar sulolasi inqiroziga kuchli ta'sir ko'rsatgan Abu Muslim qo'zg'olonida ham faol ishtirok etadi. Muqanna hayotning katta mashaqqiyatli yo'lini bosib o'tgan, oddiy kir yuvuvchidan kichik lashkarboshi, keyin vazirlik darajasiga ham ko'tarilgan(757-759). 759-yilda Xuroson amiri Abdujabborning xalifalikka qarshi isyonida qatnashgani uchun xalifa Al Mansur tomonidan zindonga tashlanadi. 769-yilda zindondan qochib Marvga keladi va xalq harakatiga boshchilik qiladi. O'rta osiyoning turli viloyatlariga o'z targ'ibotchilarini yuboradi. Muqanna g'oyalarga ixlosmand kuchlar, ayniqsa, Sug'dda ko'pchilikni tashkil qilar edi. Muqanna o'zining 36 muridi bilan Amudaryodan o'tib, Kesh viloyatiga yo'l oladi. Buxorxudot Tug'shod uni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som (ba'zi manbalarda Sanam) qal'asini

o'ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Muqanna qo'zg'oloni davomida Samarqand, Buxoro, Naxshab va Kesh hududlari aholisi ham faol harakatga keladi. Uni Eloq, Ohangaron, Shosh, Farg'ona vodiysining ko'p sonli aholisi ham qo'llab quvvatlaydi.

Oq kiyimlilar qo'zg'olonidan daxshatga tushkan xalifa Abu Ja'far 775-yilda Jabroil ibn Yaxyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda yuboradi. Ammo qo'zg'olonchilar Samarqand ostonalarida bu qo'shinga mag'lub bo'ladi. U katta talofatlar berib bazo'r Samarqandga yetib keladi. Jabroil ibn Yaxyoga yordamga yuborilgan Uqba ibn Salim boshchiligidagi 10 000 kishilik qo'shin Kesh va Samarqand, G'ariga boshliq 14 000 kishilik qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor etiladi. Natijada Chag'oniylar va Naxshab vodiylari qo'zg'olonchilari qo'liga o'tadi. Qo'zg'olon 776-yilda Buxoro vodiysida kuchayib ketadi. Bu Buxoro uchun katta xavf ekanligini yaxshi bilgan arablar 776-yil aprelda Samarqand noibi arab qo'mondoni Jabroil ibn Yaxyo va Buxoro amiri Xusayn ibn Maozning birlashgan kuchlari oq kiyimlilar qo'rg'oni Narshaxni egallaydilar. Qo'zg'olonchilardan 7000 kishi o'ldiriladi. Qo'zg'olon yo'l boshchilaridan Hakim ibn Ahmad va Hishriylar qatl etiladi. Natijada Kesh va Samarqand qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanadi. 777-yilda Oq kiyimlilarga zarba berish uchun xalifa Mahaiy Nishopurga keladi va Xuroson noibi Maoz ibn Muslim va Hirot amiri Said Xoroshiy qo'mondonligida katta qo'shin to'planib, Samarqandga yuboriladi. 777-778-yillar mobaynidagi og'ir janglardan keyingina Samarqand arablar tomonidan ishg'ol etiladi. Oq kiyimlilar Narshax va Samarqandda mag'lubiyatga uchrashgan, sotqinlik yo'lga o'tib, arablarga yordam beradilar.

780-783— yillarda qo'zg'olon harakatlari so'nggi hal qiluvchi pallaga kiradi. Bu davrda Muqannaning asosiy kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to'plangan edi. Qo'zg'olonning bosh tayanch nuqtasi Som qal'asi ham shu joyda bo'lgan. Albatta, bu vaqtga kelib xalifalik qo'shinlari katta ustunlikka ega bo'lib, ular mahalliy aholining yuqori tabaqalarini o'z tomoniga jalb etib, qo'zg'olonchilarni tobora siqib borayotgan edi. Muqanna Somda mustahkamlanib, o'z tarafdorlari bilan so'nggi nafasigacha kurashdi. Ammo bu kurashda Muqanna mag'lubiyatga uchraydi va o'zini yonib turgan olovga tashlab xalok bo'ladi. Bu voqea Beruniy ma'lumotiga ko'ra 783— yilda yuz beradi. Tarixchi Tabariyning ma'lumotlariga ko'ra, Muqanna o'z halokatining muqarrarligiga ko'zi yetgach, zahar ichgan. Shunday qilib, Movarounnahrda 14 yil davom etgan va Arab xalifaligini larzaga keltirgan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon shu tariqa yakunlandi.

Oq kiyimlilar qo'zg'oloni yengilishining bir qancha sabablari bor edi. Avvalo, qo'zg'olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qila olmadilar. Mahalliy zodagonlar aloxida guruhni tashkil etib, keyinchalik umumiy xiyonat yo'lga kirib arablar tomoniga o'tib ketishadi. Muqannaning o'zi Som (yoki Sanam) qal'asida bo'lib bevosita qo'g'olonga xabarlik qila olmadi. Uning o'zi umumiy tenglik g'oyasini ko'tarib chiqib, o'zi kichik davlat boshlig'iga aylana boradi.

Bundan tashqari, o'zaro urushlar natijasida aholi juda charchadi, ekinzorlar payxon qilindi, iqtisodiy tanazzul boshlana bordi. Muqannadan so'ng ham uning safdoshlari harakati ham bo'lib turadi. Bu qo'zg'olon xalifalik kuchini zaiflashtirdi va boshqa o'lkalarda ham ozodlik harakatlarining chiqishiga sabab bo'ladi. Qo'zg'olon ayni chog'da xalifalikning Movarounnahrda mustamlakachilik va bosqinchilik ildizlarini ham qaqshatdi. Uning hukmronligining davom etishini shubha ostiga solib qo'ydi. Eng muhimi, u erk va ozodlik uchun talpinayotgan yurtimiz kishilarida vatanparvarlik tuygusini jo'sh urdirdi, ulami ajnabiy zolimlarga qarshi yanada shiddat bilan kurash olib borishga da'vat etdi. Buning samarasi esa IX asrning boshlariga kelib yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining uzil-kesil ag'darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yuzaga kelishida to'la namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova – O'zbekiston tarixi T: Toshkent 2006
2. R. Xoliqov, K. G'aniyev, M. Nasrullayev – O'zbekiston tarixi T: Samarqand 2019
3. R. Murtazayeva, A. Odilov, A. Ermatov, K. Soipova – O'zbekiston tarixi T: Toshkent 2020